



**O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARINING  
ROLI: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, BOZOR DINAMIKASI VA DAVLAT SIYOSATINING  
USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Sarsenbaev Baxitjan**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

ORCID: 0000-0002-6884-2285

[bsarsenbaev83@gmail.com](mailto:bsarsenbaev83@gmail.com)

**Kuanishbaev Axmed**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

ORCID: 0009-0003-6865-6372

[akhmedkuanishbaev@gmail.com](mailto:akhmedkuanishbaev@gmail.com)

**Xayirbaeva Balzira**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

ORCID: 0009-0002-7424-0851

[khayirbaeva@gmail.com](mailto:khayirbaeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi bosimining kuchayishi va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tishi sharoitida O'zbekistonda yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda tijorat banklarining roli o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi yashil kreditlashni cheklab turgan institutsional va bozor to'siqlarini aniqlash hamda milliy moliya tizimiga moslashtirilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Metodologik jihatdan maqolada hujjatlar tahlili, statistik tahlil va xalqaro tajribani qiyosiy baholash qo'llanilgan. Tadqiqotning empirik bazasini milliy siyosiy-huquqiy va statistik materiallar, shuningdek, xalqaro rivojlanish institutlarining tahliliy manbalari tashkil etadi. Maqolada taksonomiya joriy etish, ESG ma'lumotlarini oshkor qilish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va yashil ipoteka instrumentlarini kengaytirish bo'yicha siyosiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil moliyalashtirish, tijorat banklari, yashil kreditlash, barqaror moliyalashtirish, ESG hisoboti, yashil taksonomiya, qayta tiklanuvchi energiyani moliyalashtirish, O'zbekiston.

**РОЛЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В ЗЕЛЁНОМ ФИНАНСИРОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ:  
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА, ДИНАМИКА РЫНКА И ПРИОРИТЕТЫ  
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ**

**Сарсенбаев Бахитжан**

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха*

**Куанышбаев Ахмед**

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха*

**Хайирбаева Балзира**

*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль коммерческих банков в развитии зелёного финансирования в Узбекистане в условиях усиления климатических вызовов и перехода страны к зелёной экономике. Цель исследования заключается в

выявлении институциональных и рыночных барьеров, ограничивающих развитие зелёного кредитования, а также в формулировании практических рекомендаций, адаптированных к национальной финансовой системе. Методологически статья основана на смешанном подходе, объединяющем анализ документов, статистический анализ и сравнительную оценку международного опыта. Эмпирическую базу исследования составляют национальные программные и статистические материалы, а также аналитические источники международных институтов развития. Статья предлагает политико-прикладные рекомендации по внедрению таксономии, раскрытию ESG-информации, развитию кадрового потенциала и внедрению инструментов зелёной ипотеки.

**Ключевые слова:** зелёное финансирование, коммерческие банки, зелёное кредитование, устойчивое финансирование, ESG-отчётность, зелёная таксономия, финансирование возобновляемой энергетики, Узбекистан.

## THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: INSTITUTIONAL FRAMEWORK, MARKET DYNAMICS AND POLICY PRIORITIES

**Sarsenbaev Bakhitjan**

*Karakalpak State University named after Berdakh*

**Kuanishbaev Akhmed**

*Karakalpak State University named after Berdakh*

**Khayirbaeva Balzira**

*Karakalpak state university named after Berdakh*

**Abstract.** This article examines the role of commercial banks in advancing green financing in Uzbekistan amid climate change pressures and the country's transition to a green economy. The study aims to identify the institutional and market barriers constraining green lending and to formulate practical recommendations tailored to the national financial system. Methodologically, the paper employs a mixed-method approach that combines document analysis, statistical analysis and comparative assessment of international experience. The empirical base includes national policy and statistical materials as well as analytical sources from international development institutions. The article contributes policy-relevant recommendations on taxonomy implementation, ESG disclosure, capacity building, and green mortgage instruments.

**Keywords:** green finance, commercial banks, green lending, sustainable finance, ESG reporting, green taxonomy, renewable energy financing, Uzbekistan.

### **Kirish.**

Iqlim o'zgarishi endilikda faqatgina ekologiya sohasi vakillarini tashvishga solayotgan hodisa emas. U global moliya va iqtisodiy tizimning barqarorligini belgilovchi reallik sifatida namoyon bo'lmoqda. Muzliklar erishi, suv tanqisligi va ekotizimlarning izdan chiqishi millionlab odamlarning turmush tarziga, davlatlarning iqtisodiy salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston misolida bu ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi: Orol dengizining qurishi, suv resurslarining yildan-yilga kamayib borishi va cho'llanish jarayonlari, qishloq xo'jaligi, turizm, eksport salohiyati va aholining turmush sifatini pasayishiga olib kelyapti. Shuni aytishimiz mumkin, O'zbekiston iqtisodiyoti 2024-yilda tarixida birinchi marta 100 milliard dollarlik YaIM ko'lamidan oshdi biroq bu o'sishning uzoq muddatli barqarorligi ko'p jihatdan ekologik muammolarni samarali yehim topishiga bog'liqli. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy rivojlanish va ekologik muvozanat - endi bir tanganing ikki tomoni.

Ushbu muammoni tushunishda ekologik moliya nazariyasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur nazariya moliyaviy tizimlar va ekologik barqarorlik o'rtasidagi chuqur o'zaro bog'liqlikni o'rganadi hamda tijorat banklarining kapital oqimlarini ekologik jihatdan mas'uliyatli sohalarga yo'naltirishdagi strategik rolini ilmiy ochib beradi. Unga parallel ravishda barqaror rivojlanish moliyasi kontseptsiyasi ham shakllangan bo'lib, u iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanatni bir vaqtda ta'minlovchi moliyalashtirish modellarini anglatadi. Ushbu ikki nazariy yondashuv birgalikda zamonaviy «yashil bank» tushunchasining poydevorini tashkil etadi va mazkur tadqiqotning asosiy nazariy-uslubiy asosi sifatida qabul qilinadi.

O'zbekiston davlat siyosati nuqtai nazaridan ham bu masalaga jiddiy e'tibor qaratila boshlanganini alohida ta'kidlash zarur. 2022-yildan boshlab mamlakat yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qat'iy va izchil siyosat yo'lini tanlab oldi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida PQ-436 -son qaror bilan 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tishning keng qamrovli dasturi tasdiqlandi. 2025-yil esa «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili» deb rasmiy e'lon qilinib, PF-16 davlat dasturi qabul qilindi - bu qadam yashil islohotlarga davlat miqyosida yangi turtki berdi. 27-yanvar 2025-yilgi kengaytirilgan Prezident yig'ilishi va PF-21 farmoni ushbu islohotlarni 2030-yilgacha bo'lgan ustuvor yo'nalishlar doirasida yanada mustahkamladi. Shu tariqa, Davlat siyosati va normativ-huquqiy baza jihatidan zarur shart-sharoitlar shakllantirilmogda, endi asosiy vazifa ushbu siyosat yo'nalishlarini bank sektori orqali amaliy moliyaviy mexanizmlarga aylantirish bo'lib qolmogda.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi tijorat banklarining yashil moliyalashtirishdagi rolini tahlil qilish, sohadagi to'siqlarni aniqlash hamda O'zbekiston sharoitiga mos amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida xalqaro tajriba va mahalliy amaliyot qiyosiy tahlil qilinadi. Shubhasiz, shuni aytishimiz mumkin yangi xalqaro tajribalardan foydalanish vaqt va imkoniyatlardan unumli foydalanishning muhim poydevori hisoblanadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Yashil moliya va banklarning ekologik loyihalardagi roli bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyot so'nggi o'n yillarda jadal ravishda kengaydi. Sachs, J.D. o'zining «The Age of Sustainable Development» nomli fundamental tadqiqotida sarmoyaviy resurslarni ekologik jihatdan xavfsiz tarmoqlarga safarbar etish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki iqtisodiy barqarorlikning ham muhim sharti ekanligini isbotlab bergan (Sachs, 2015). Lehner, Harrer va Silvola «The Routledge Handbook of Green Finance» qo'llanmasida tijorat banklari yashil kreditlash uchun eng tabiiy kanal ekanligi ta'kidlanadi, chunki ular bir tomondan milliy miqyosdagi resurslarni, ikkinchi tomondan xalqaro «yashil» kapital bozorlarini birlashtirib, real sektorda o'zgarish yarata oladi (Lehner, et al., 2023).

Keyingi yillarda tijorat banklarining yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi o'rni dunyo miqyosida keng o'rganilayotgan mavzu va yo'nalishga aylandi. Olimlar va xalqaro tashkilotlar bu yo'nalishda izlanishlarni faollashtirmogda, sababi dunyoda yuz berayotgan iqlimiy ekologik o'zgarishlarni oldini olishda va yumshartirishda moliyaviy institutlarning o'rni yuqori ekanligini banklarning bu sohadagi amaliy faoliyati isbotlamogda.

Mirdovidovning «Tijorat banklarining ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi roli» nomli maqolasi 2025-yilda «Innovations in Science and Technologies» ilmiy-elektron jurnalida chop etilgan va bu maqolada tijorat banklarining ekologik loyihalar bilan bog'liq asosiy moliyalashtirish shakllari - yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, lizing va davlat-xususiy sheriklik - batafsil tahlil qilinadi (Mirdovidov, 2025).

Yashil loyihalarni moliyalashtirishning makroiqtisodiy tomonlorini yoritib bergan va davlat pul kredit siyosati va yashil kreditlarni birgalikda foydalansh istiqbollari o'rgangan keyingi tadqiqotchi Uskenbayeva Dilnoza. Uning «O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash maqsadida kichik biznes va yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari» nomli maqolasi 2025-yil sentyabr oyida «Marketing» ilmiy,

amaliy va ommabop jurnalida nashr qilingan. Avtor monetarizm va keynschilik nazariyalariga suvangan holda, shuningdek mahalliy olimlar Arifov A. va Xodiev B. ishlariga ham murojaat qilib, davlatning yashil investitsiyalarni rag'batlantirishdagi faol rolga urg'u beradi. Tadqiqotda keltirilgan raqamlarga ko'ra, 2018-2024-yillar oralig'ida O'zbekistonda yashil loyihalar soni deyarli 6 baravar o'sgan, ularning 70-80 foizi esa aynan tijorat banklari kreditlari orqali moliyalashtirilgan. Shuningdek, Jahon banki ma'lumotlariga asoslanib, O'zbekistonda davlat moliya institutlari umumiy kredit hajmining taxminan 70 foizini ajratishi va bu resurslarni yashil yo'nalishlarga o'tkazish katta imkoniyat yaratishi ko'rsatib bergan (Uskenbayeva, 2025).

Mazkur tadqiqot doirasida yana bir maqola muallifi Khudoyberdieva Dilafroz Bakhtiyorovnaning «Foreign Experience and Practice of Financing Green Economy Sectors in Commercial Banks». Ushbu xalqaro nashrda AQSh, Germaniya va Xitoyning yashil moliyalashtirish sohasidagi amaliyoti qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada Lindenberg, Weber va ElAlfy, shuningdek Akomea-Frimpong va boshqalar kabi xalqaro avtorlari ishlariga tayanib, ESG mezonlari, yashil obligatsiyalar va zamonaviy moliyaviy vositalar asosida tijorat banklari uchun ekologik mas'uliyat va iqtisodiy rentabellik bir-birini inkor etuvchi tushunchalar emas. Aksincha, yashil loyihalarni moliyalashtirish bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini hamda ijtimoiy nufuzini bir vaqtning o'zida yuksaltirishga xizmat qiluvchi samarali strategiya ekanligi asoslab beriladi. Xitoyning Markaziy banki tomonidan 2021-yilda joriy etilgan Carbon Emission Reduction Facility dasturi alohida misol sifatida keltiriladi - ushbu dastur doirasida 2025-yilga kelib 215 million tonna CO<sub>2</sub> chiqindilarining oldini olish imkoni yaratilgan. Germaniya tajribasi, xususan KfW Yashil banki faoliyati esa kichik va o'rta biznes korxonalar uchun yashil kreditlar tizimini yo'lga qo'yishda samarali namuna sifatida baholanadi (Khudoyberdieva, 2024).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo'llanilib, yashil moliyalashtirish mexanizmlarining O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish istiqbollari miqdoriy va sifat jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotning axborot bazasi birlamchi va ikkilamchi manbalardan shakllantirildi: birlamchi manbalar sifatida UNDP Green DFA hisoboti, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining yashil iqtisodiyotga oid hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari; ikkilamchi manbalar sifatida esa xalqaro ilmiy jurnallardagi maqolalar, Jahon banki va UNDPning analitik hujjatlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida hujjatlar tahlili, statistik tahlil, xalqaro tajribani baholashga qaratilgan qiyosiy tahlil qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuv mavzuni nazariy, institutsional va amaliy jihatdan izchil baholash imkonini berdi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari va barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bank sektorining klassik rolini tubdan o'zgartirmoqda. Endilikda tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston moliya bozorida ham ushbu yangilanish jarayoni tartibli amalga oshirilmoqda, u avvalo mustahkam huquqiy va strategic asoslarga tayanadi.

O'zbekistonda Yashil iqtisodiyotga o'tishda huquqiy bazani shakllantiruvchi qator hujjatlar orasida quyidagilari markaziy o'rinlarni egallaydi. Prezidentning PF-60-son Farmoni (2022-yil 28-yanvar) iqtisodiyot energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, zararli gazlar chiqarilishini 20 foizga kamaytirish, bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizga yetkazish kabi maqsadlarni belgilab berdi. PQ-436-son Qaror (2022-yil 2-dekabr) 2030-yilgacha yashil iqtisodiyot dasturini tasdiqlab, issiqxona gazlarini 35 foizga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 15 GVtga yetkazish hamda yashil sertifikat va ETS/JCM tizimini joriy etishni belgiladi.

Vazirlar Mahkamasining 561-son Qarori (2023-yil 25-oktabr) Milliy yashil iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlab, yashil kredit va obligatsiyalarni tasniflashning huquqiy asosini yaratdi; davlat moliyaviy ko‘magidan foydalanadigan banklar uchun majburiy hisobot talabini o‘rnatdi. PF-21-son Farmon (2026-yil 16-fevral) esa “O‘zbekiston-2030” strategiyasini yangilab, moliya sektori uchun ESG monitoring tizimini takomillashtirdi va yashil loyihalarni davlat xarajatlari bilan bog‘lashni talab qildi.

1-jadval

Hujjat	Sana	Mohiyati	Tijorat banklariga belgilangan me‘yorlar
PF-60 “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi	28.01.2022	Energiya samaradorligi +20%; zararli gazlar -20%	Bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60%ga yetkazilsin; yashil loyihalar moliyalashtirilsin
PQ-436 - Yashil iqtisodiyot dasturi	02.12.2022	GHG -35%; qayta tiklanuvchi energiya 15 GVt/30%; MRV, ETS/JCM, yashil sertifikat	Banklar yashil sertifikat tizimida vositachi; ESG mezonlari bo‘yicha kreditlash joriy etilsin
VM 561-son - Milliy yashil taksonomiya	25.10.2023	Yashil faoliyat toifalari va muvofiqlik mezonlarini belgilash	Yashil kredit va obligatsiyalar taksonomiya asosida tasniflansin davlat ko‘magidan foydalanadigan banklarga majburiy hisobot
PF-21 - “O‘zbekiston-2030” yangilanishi	16.02.2026	Strategiya ko‘rsatkichlari yangilandi; monitoring raqamlashtirildi	ESG monitoring yangilandi; yashil moliyalashtirish budjet bilan muvofiqlashtirilsin

2025-yilda tijorat banklari yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi faolligini sezilarli oshirdi. EBRD bilan hamkorlikdagi GEFF III fazasi doirasida 200 mln AQSh dollari yashil kredit mablag‘lari mahalliy banklar orqali ajratildi; ADB Green PBL dasturi bo‘yicha 250 mln AQSh dollari kredit infratuzilma loyihalariga yo‘naltirildi. 446 mingdan ziyod yashil energiya sertifikati muomalaga chiqarildi; Jahon banki iCRAFT loyihasi doirasida 500 ming tonna uglerod birligi xalqaro bozorga chiqarilib, 7,5 mln AQSh dollari jalb etildi.

Yuqorida keltirilgan huquqiy bazaning amaliyotga ta‘sirini esa aniq raqamlar orqali ko‘rish mumkin - 2-jadvalda tijorat banklarining quyosh energiyasini moliyalashtirishdagi faoliyati yillar kesimida aks ettirilgan.

2-jadval

**Tijorat banklari tomonidan quyosh panellarini o‘rnatish uchun ajratilgan kreditlar to‘g‘risida ma‘lumot (mln so‘m)**

№	Yillar	Ajratilgan kreditlar		Shundan,			
				Jismoniy		Yuridik	
		soni	summa	soni	summa	soni	summa
1	2024-yil	1 887	44 511	1 757	35 461	130	9 051
2	2025-yil	3 802	190 623,0	3 435	70 952,8	367	119 670,2
3	2026-yil, yanvar- mart,	524	20 375,8	517	13 101,0	7	7 274,8

2-jadval tijorat banklari tomonidan quyosh panellarini o'rnatish uchun ajratilgan kreditlarning so'nggi uch yil dinamikasini aks ettiradi va O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bozorining tez o'sib borayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda jami 1 887 ta kredit, 44 511 mln so'm miqdorida ajratilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich sonida 2,02 barobarga (3 802 ta), summasida esa 4,28 barobarga oshib, 190 623 mln so'mga yetgan. Bu farq muhim xususiyatlarni o'zida yashirib turibdi: masalan, o'sish tezligi qarz oluvchilar sonidan keskin ustunlik qilishi kredit o'rtacha summasining sezilarli oshganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda o'rtacha bir kredit 23,6 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 50,1 mln so'mga, ya'ni 2,12 barobarga o'sgan. Bu holat ikkita mutanosib jarayonlarni ifodalaydi: bir tomondan, quyosh panellari bo'yicha kreditlanadigan loyihalar ko'lamining kengayishi (kichik uy xo'jaligi qurilmalaridan yirik quvvatli tizimlarga o'tish), ikkinchi tomondan, bank mahsulotlari narxining foiz stavkalari dinamikasi ta'sirida oshishi.

Jadvaliy tahlil yuridik shaxslar faolligidagi o'sish e'tiborga loyiq ekanligini ko'rsatadi. 2024-yilda yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar umumiy summaning atigi 20,3 foizini tashkil etgan bo'lsa (9 051 mln so'm), 2025-yilda bu ulush 62,8 foizga ko'tarilgan (119 670,2 mln so'm) - o'sish 13,2 barobar. Ushbu siljish tijorat va sanoat sektorining quyosh energiyasiga tizimli qiziqishining oshganligini, davlat rag'batlantirish mexanizmlari (PQ-436, PF-21) hamda GEF dasturlari ta'sirida korporativ yashil investitsiyalar tezlashganligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, yuridik shaxslar ulushining jismoniy shaxslarga nisbatan shu qadar keskin ustunlik qilishi ikki tomonlama muammoni keltirib chiqarishi mumkin: ya'ni chakana yashil moliyalashtirish bozori hali to'liq rivojlanmagan va aholi ongida yashil kredit mahsulotlari yetarli darajada targ'ib qilinmaganligidan dalolat beradi.

2026-yilning yanvar-mart oylariga doir dastlabki ma'lumotlar mavsumiy va tarkibiy xususiyatlarni aks ettiradi. Mazkur uch oyda 524 ta kredit, 20 375,8 mln so'm miqdorida ajratilgan bo'lib, bu 2025-yilning shu davriga nisbatan baholash uchun to'liq yillik hisobot talab etadi. Lekin, yuridik shaxslar sonining 367 dan 7 tagacha keskin kamayishi (2025 yil yillik ko'rsatkichiga nisbatan) joriy yil boshida yirik korporativ loyihalar moliyalashtirishidagi vaqtinchalik to'xtashni yoki ko'proq loyihalar hali tasdiqlash bosqichida ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Ushbu dinamika SWOT tahlilida qayd etilgan imkoniyatlar bilan bevosita bog'liq: tijorat banklarining yashil kreditlashdagi faoliyati rivojlanmoqda, ammo ularning umumiy salohiyatdan (ehtiyoj hajmining 30-35 foizini qoplash) hali sezilarli darajada orqada qolishi ushbu o'sishning etarli emasligini ko'rsatadi. Bugungi natijalar kuchayib borayotgan bozor tendentsiyasini tasdiqlaydi, lekin tizimli to'siqlar - yashil taksonomiyaning to'liq joriy etilmaganligi, ESG hisobotlarining majburiy emasligi va kredit baholash metodologiyasining yetarli emasligi - bu o'sishning barqarorligini sekinlashtirishda davom etmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqorida keltirilgan tahlil va adabiyotlar sharhiga tayangan holda O'zbekistonda ekologik loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarning o'rnini yanada mustahkamlash uchun quyidagi olti ustuvor yo'nalish tavsiya etiladi.

Birinchidan, milliy yashil taksonomiyaning joriy etish lozim. Hozirda «yashil kredit» va «oddiy kredit» o'rtasida rasmiy chegara yo'qligi greenwashing xavfini keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Markaziy banki EU taksonomiyasini milliy sharoitga moslashtirib, barcha tijorat banklari uchun majburiy mezonlarni belgilasa, moliyaviy shaffoflik oshadi va xalqaro kapital jalb etish osonlashadi.

Ikkinchidan, GEF III imkoniyatidan to'liq foydalanish zarur. 200-300 mln USD miqyosidagi ushbu dasturdan hozircha asosan yirik banklar bahramand bo'lmoqda. Markaziy bank texnik yo'riqnoma va namunaviy kredit shartnomalari tayyorlab kichik va o'rta banklarga tarqatsa, yashil moliyalashtirish masshtabi sezilarli kengayadi.

Uchinchidan, ESG hisobotlarini majburiy tizimga o'tkazish kerak. Aktivlari 1 trln so'mdan oshgan banklar uchun yillik ESG hisoboti va mustaqil audit talabi joriy etilsa, bank sektorining xalqaro nufuzi oshadi hamda xalqaro investorlar bilan hamkorlik uchun mustahkam asos yaratiladi.

To'rtinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida Markaziy bank va O'zbekiston Bankirlar uyushmasi birgalikda «Yashil moliya asoslari» bo'yicha majburiy malaka oshirish dasturini yo'lga qo'yishi, CFA ESG va GARP SCR kabi xalqaro sertifikatlar uchun esa davlat grantlarini ajratishi lozim. Bu banklarning yashil loyihalarni sifatli baholash qobiliyatini yuksaltiradi.

Beshinchidan, yashil ipoteka va energiya tejavchi uy dasturini kengaytirish tavsiya etiladi. Aholi orasida quyosh paneli, issiqlik izolyatsiyasi va energiya tejavchi jihozlarga talab o'sib bormoqda, biroq bunga mo'ljallangan maxsus ipoteka mahsulotlari yetarli emas. Banklar imtiyozli «yashil ipoteka» kredit mahsulotlarini, davlat esa foiz subsidiyasi mexanizmini joriy etsa, maishiy sektor CO<sub>2</sub> chiqindilari kamayadi, aholi kommunal xarajatlari qisqaradi va yashil qurilish bozori rivojlanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin, mazkur tavsiyalar to'liq va izchil amalga oshirilganda o'zining samarali natijasini beradi. O'zbekiston tijorat banklari uchun yashil transformatsiya - bu kelajakning emas, bugunning talabi.

#### ***Adabiyotlar /Jumepamypa/References::***

*Khudoyberdieva, D.B. (2024). Foreign Experience and Practice of Financing Green Economy Sectors in Commercial Banks. European journal of business startups and open society. Vol. 4 No. 3.*

*Lehner, O.M., Harrer, T., Silvola, H., & Weber, O. (Eds.). (2023). The Routledge Handbook of Green Finance (1st ed.). Routledge.*

*Mirdovidov, B. (2025). Tijorat Banklarining ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi roli. Innovations in Science and Technologies, 2(7), 175-182.*

*Sachs, J.D. (2015), The Age of Sustainable Development. Columbia University Press, New York*

*Sarsenbaev, B., Rakhimboev, M., Aytmuratova, U., Kaypnazarova, G., & Shamshetova, D. (2025, ). Econometrical modeling of dynamic processes of labor market development. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3331, No. 1, p. 040019). AIP Publishing LLC.*

*Sarsenbayev, B., Kengesbayeva, S., & Kengesov, D. Mintaqaviy Iqtisodiyotlarda Kapital Qo'yilmalarning Determinantlari: Qoraqalpog'istonda Aholi Va Byudjet Daromadlarini Ekonometrik O'rganish. Green Economy and Development, 3(4), 665405.*

*Uskenbayeva, D.B. (2025). O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish va atrof muhit muhofazasini ta'minlash maqsadida kichik biznes va yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari. Marketing Jurnal, 9.*